XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-avgust VI-93-79-4-62-K/24 Kitob tumani

Kitob tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-sonli “Yo‘l xaritasi” ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 1-avgustdagi Kitob tumani hokimiga yuborilgan 01-108-sonli xati orqali tumanning ma’muriy-hududiy tuzilishiga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Kitob tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 5-avgustdagi B-1-03/90-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Kitob tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Kitob tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Shahrisabz shahri, Shahrisabz, Chiroqchi va Kitob tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizma 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilar egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlar (kanal, kollektor, zovur, ariq , yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘iga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Sessiya raisi

EGAMBERDIYEV
BAXRIDDIN
BOLTAYEVICH

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-93-79-4-62-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyati Kitobtumanining chegara
TAVSIFI

Samarqand va Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi va Kitob tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 39°25'0,96", sharqiy uzoqlik koordinatalari 66°49'27,80").*

A dan B gacha Samarqand viloyatiyerlari bilan 1-8-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini takrorlagan holda 2738 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 236 metr masofani o‘tib 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy* kenglik *39°25'26,78", sharqiy uzoqlik 66°51'15,03").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i avval tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 762 metr, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 1429 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 760 metr so‘ng, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 772 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalsihda 1189 metr masofani o‘tadi, so‘ngra tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 2234 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 442 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 772 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4049 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 1309 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 909 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 225 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 1297 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1772 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 382 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 297 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 712 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1047 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 622 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 898 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 763 metr masofani o‘tib 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°17'37,13", sharqiy uzoqlik 66°51'4,18").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i avval tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2921 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2027 metr masofani o‘tadi, so‘ngra tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2076 metr, so‘ng yo‘nalishni o‘zgartimagan holda tog‘ tizmasi bo‘ylab 8097 metr masofada M-39 avtomobil yo‘lini, dala tuproq yo‘llarini kesib o‘tib soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1263 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1283 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, yo‘lning janub tomoni bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 145 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 102 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 412 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni

bilan sharqiy yoʻnalishda 43 metr masofada oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°16'8,10", sharqiy uzoqlik 67°0'2,89").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 438 metr, soʻng umumiy barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yoʻnalishda 753 metr, keyin togʻ tizmasining barcha burilishlarini takrorlagan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 690 metr, soʻng dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yoʻnalishda 148 metr, keyin dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 245 metr, soʻng togʻ tizmasining barcha burilishlarini takrorlagan holda shimoliy yoʻnalishda 632 metr, keyin barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy sharqiy yoʻnalishda 665 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 982 metr, soʻngra umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5295 metr masofani oʻtadi, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1509 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 851 metr, soʻng barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy yoʻnalishda 1667 metr, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 495 metr masofani oʻtib 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°20'47,64", sharqiy uzoqlik 67°3'29,22").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi avval togʻ tizmasining barcha burilishlarini hisobga olgan holda umumiy sharqiy yoʻnalishda 8213 metr, soʻng barcha burilishlarini takrorlagan holda janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2423 metr masofani oʻtib 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°20'3,40", sharqiy uzoqlik 67°9'19,63").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi avval togʻ tizmasining barcha burilishlarini takrorlagan holda sharqiy yoʻnalishda 1492 metr, soʻng barcha burilishlarini takrorlagan holda shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1097 metr, keyin barcha burilishlarini takrorlagan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 10007 metr masofani oʻtib 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°18'45,07", sharqiy uzoqlik 67°16'48,38").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi avval togʻ tizmasining barcha burilishlarini takrorlagan holda, sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 664 metr, soʻng barcha burilishlarini takrorlagan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1015 metr, keyin barcha burilishlarini takrorlagan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 4152 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 988 metr masofani oʻtib 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°18'30,31", sharqiy uzoqlik 67°20'44,91").*

B dan D gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 8-9-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

8-nuqtadan 9-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 39°8'39,77", sharqiy uzoqlik 67°38'8,80").*

D dan E gacha Shahrisabz tumani yerlari bilan 9-22-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

9-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 633 metr masofada oʻtadi va janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1963 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 590 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 455 metr masofada Oqsuv daryosiga oʻtadi va daryoning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4669 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2811 metr masofada oʻtadi va

shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2580 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 847 metr masofada oʻtadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2622 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 17169 metr masofani oʻtib, daryo boʻyidagi 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°5'35,63", sharqiy uzunlik 67°22'30,01").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy avval shimoliy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1990 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 300 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2413 metr masofada oʻtadi va qir adirliklarning suv ayigʻichlari boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 1533 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy yoʻnalishda 1807 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1437 metr masofada oʻtadi va qir adirliklarning suv ayigʻichlari boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 8350 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 3280 metr masofani oʻtib 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°4'12,33", sharqiy uzunlik 67°12'47,08").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi qir adirliklarning suv ayigʻichlari boʻylab avval gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6191 metr masofada Qorasuv soyiga oʻtadi va soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy yoʻnalishda 364 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 88 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 1743 metr, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 709 metr masofani oʻtib 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°4'17,52", sharqiy uzunlik 67°7'45,60").*

12-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 610 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 661 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 873 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 929 metr masofani oʻtib 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°3'45,62", sharqiy uzunlik 67°6'16,02").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi avval quruq chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 237 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 781 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 452 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 501 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 1926 metr masofada avtomobil yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 80 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°2'8,93", sharqiy uzunlik 67°5'20,46").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 402 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 288 metr masofani oʻtib, Oqsuv daryo boʻyidagi 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°1'55,01", sharqiy uzunlik 67°5'35,94").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy Oqsuv daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 7161 metr masofani oʻtib, daryo boʻyidagi 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°3'4,05", sharqiy uzunlik 67°1'26,67").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy Oqsuv daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2999 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2128 metr masofani oʻtib,

daryo boʻyidagi 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°4'40,43", sharqiy uzunlik 66°59'1,45").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi Oqsuv daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1472 metr masofani oʻtib, daryo boʻyidagi 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°4'52,22", sharqiy uzunlik 66°58'5,56").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi Oqsuv daryosidan ariqqa oʻtadi va avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 374 metr masofada dala yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 437 metr masofada ariqqa oʻtadi va umumiy ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 1431 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 603 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 1515 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyidagi 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°6'6,26", sharqiy uzunlik 66°56'43,55").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi dala yoʻlining shimol tomoni bilan avval umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 239 metr masofada oʻtadi va quruq chegara chizigʻi orqali umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 243 metr masofada Oqdaryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1129 metr masofada ariqqa tutashadi va janubiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1250 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 155 metr masofada oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 111 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 967 metr soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 584 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 891 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 749 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1829 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyidagi 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°6'0,06", sharqiy uzunlik 66°53'16,39").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 754 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 763 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°6'2,70", sharqiy uzunlik 66°52'19,99").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 335 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 448 metr, soʻng qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1120 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°5'56,28", sharqiy uzunlik 66°51'53,47").*

E dan F gacha Shahrisabz shahari yerlari bilan 22-24-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

22-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan avval umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1116 metr masofada oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 176 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 164 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy yoʻnalishda 109 metr, soʻng quruq chegara chizigʻi orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 612 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 358 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 374 metr masofada oʻtadi va

yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 468 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 450 metr masofani o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 208 metr masofada o‘tadi va g‘arbiy yo‘nalishda 173 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°6'21,01", sharqiy uzunlik 66°50'16,53").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 639 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 832 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 809 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 214 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°6'0,04", sharqiy uzunlik 66°49'3,22").*

F dan Ggacha Shahrisabz tumani yerlari bilan24-31-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

24-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy avval shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 499 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 236 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 206 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 294 metr masofada o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 76 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 45 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 129 metr masofada Oqdaryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1699 metr masofada o‘tadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 526 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 348 metr masofani o‘tib, Oqsuv daryosi bo‘yidagi 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°6'32,73", sharqiy uzunlik 66°47'45,63").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i Oqsuv daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 823 metr masofani o‘tib, daryo bo‘yidagi 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°6'16,88", sharqiy uzunlik 66°47'19,91").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i Oqsuv daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 116 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 969 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1511 metr masofani o‘tib, daryo bo‘yidagi 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°5'56,08", sharqiy uzunlik 66°46'2,09").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i Oqsuv daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 331 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 121 metr masofada daryoni kesib o‘tib, so‘ng daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 491 metr masofani o‘tib, daryo bo‘yidagi 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°5'47,19", sharqiy uzunlik 66°45'34,23").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i Qashqadaryo daryosini kesib o‘tib, Oqsuv daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 839 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 349 metr masofada Qashqadaryo daryosiga o‘tadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1333 metr masofada Sho‘rob soyiga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1819 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 143 metr masofada dala yo‘liga

oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2380 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidgi 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°7'24,25", sharqiy uzunlik 66°42'51,17").*

29-nuqtadan chegara chizigʻi avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1611 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 427 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1126 metr masofada oʻtadi va shimoliy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 117 metr masofada dala yoʻliga tutashdi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 83 metr masofada ariqqa oʻtadi va shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 62 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 98 metr masofada yoʻlga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 578 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 1973 metr masofada masofani yoʻl boʻyidagi 30-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°8'40,14", sharqiy uzunlik 66°42'31,71").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 935 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 626 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°8'17,42", sharqiy uzunlik 66°41'45,36").*

G dan A gacha Chiroqchi tumani yerlari bilan31-1-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

31-nuqtadanchegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 54 metr masofada oʻtadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 810 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 169 metr masofada soyga tutashadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 104 metr masofada oʻtadi va janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 61 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 75 metr masofada oʻtadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 62 metr, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 120 metr masofada oʻtadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 34 metr masofada oʻtib va shimoliy yoʻnalishda 96 metr masofada soyni kesib oʻtib, ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 171 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 85 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 32-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°8'35,31", sharqiy uzunlik 66°40'58,43").*

32-nuqtadanchegara chizigʻi ariqdan latokga oʻtadi va latokning suv oqimi boʻylab avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 150 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 525 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 938 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 65 metr masofada soʻyga oʻtadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 572 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 42 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 248 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 33-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°9'1,17", sharqiy uzunlik 66°39'21,33").*

33-nuqtadanchegara chizigʻi avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 394 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha

burilishlarni hisobga olgan holda 3574 metr masofani o‘tib, yoʻl bo‘yidagi 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°10'53,68", sharqiy uzunlik 66°38'11,64").*

34-nuqtadanchegara chizig‘i avval shimoliy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi 1085 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 597 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 105 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°11'44,96", sharqiy uzunlik 66°37'54,74").*

35-nuqtadanchegara chizig‘i avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi 73 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 79 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 76 metr, soʻngra umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 466 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3116 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°13'17,02", sharqiy uzunlik 66°36'45,90").*

36-nuqtadanchegara chizig‘i avval shimoliy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi 347 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 394 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻng toʻgʻri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2824 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2669 metr masofani o‘tib 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°16'8,69", sharqiy uzunlik 66°38'43,46").*


37-nuqtadanchegara toʻgʻri chegara chizig‘i orqali avval shimoliy yoʻnalishda 576 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1083 metr, soʻng quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1037 metr, soʻngra avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 56 metr masofani o‘tib, yoʻl boʻyidagi 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°17'33,65", sharqiy uzunlik 66°39'5,37").*

38-nuqtadanchegara chizig‘i avtomobil yoʻlidan tog‘ tizmasiga oʻtadi va umumiy tizma boʻylab avval sharqiy yoʻnalishda 4129 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8482 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi boʻyidagi 39-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°19'34,59", sharqiy uzunlik 66°46'27,73").*

39-nuqtadanchegara chizig‘i umumiy tog‘ tizmasi boʻylab avval sharqiy yoʻnalishda 827 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 807 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6978 metr, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 2589 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2061 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi boʻyidagi 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°25'0,96", sharqiy uzunlik 66°49'27,80").*

Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-93-79-4-62-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova



Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-93-79-4-62-K/24 -son qaroriga
3-ilova

“T A S D I Q L A Y M A N”
Kitob tuman hokimi
_____ R.G‘ofurov
“___” _____ 2024-yil

Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining yig‘ilishi

BAYONI 5-1-03/90

2024-yil “5” avgust **Kitob tumani**

Yig‘ilish raisi: **R.G‘ofurov** – tuman hokimi.

Yig'ilish kotibi: **I.Yusupov** - Davlat kadastrlari palatasining filial rahbari

Ishtirok etganlar: **Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasi a’zolari:**

K U N T A R T I B I D A:

“O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ning 8 va 9-bandlari ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan Kitob tumanining Shahrisabz, Chiroqchi tumanlari va Shahrisabz shahar hamda Samarqand viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida.

(R.G‘ofurov, E.Hamdamov, D.Shodiyorov,I.Yusupov)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-sonli “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 8- va 9-bandlarida Qashqadaryo viloyati tuman(shahar)larning chegaralarini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi

va kartografik chizmasini tayyorlash, tuman (shahar) komissiyalari tomonidan chegara chizig‘ini belgilash, o‘zgartirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni tumanlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

“Yo‘l xaritasi”ning 8-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, Kadastr agentligi tomonidan Qashqadaryo viloyatining tuman(shahar)lari chegara chizig‘i tavsiflari va kartografik chizmalari tayyorlanib, loyiha taklifi ishlab chiqilgan va Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2962-son xati bilan Qashqadaryo viloyati hokimligiga chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan hujjatlarni qo‘shni tuman (shahar)lar bilan kelishish, tegishli Xalq deputatlari Kengashlarida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etilgan.

Yuqoridagilarga asosan, Kadastr agentligi tomonidan Qashqadaryo viloyati Kitob tumanining Shahrisabz, Chiroqchi tumanlari va Shahrisabz shahar hamda Samarqand viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha ishlab chiqilgan loyiha taklifi belgilangan tartibda qo‘shni tumanlar bilan kelishilgan.

